

O‘ZBEKISTON MEHNAT BOZORINING TARKIBIY O‘ZGARISHLARI VA 2027–2030-YILLAR ISTIQBOLI: MIGRATSIYA, UNUMDORLIK VA BANDLIK SIFATI

Karimov Dilshodjon Sabirdjanovich
Kambag‘allik va mehnat bozorini tadqiqotlar instituti direktori
Email: dilshodkarimov@gmail.com

Saidumarov Saidmurod Saidazim o‘g‘li
Kambag‘allik va mehnat bozorini tadqiqotlar instituti, Sun’iy intellekt va raqamlashtirish bo‘limi boshlig‘i
ssmasteruz@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1297-6370

Ruzmetov Alisher Maraimovich
Kambag‘allik va mehnat bozorini tadqiqotlar instituti, Munosib mehnat, mehnat xavfsizligi va gigiyenasini tahlil qilish bo‘limi bosh ilmiy xodimi
alisherruzmetov@gmail.com

Mukimov Ne’matjan
Kambag‘allik va mehnat bozorini tadqiqotlar instituti, Doktorantura va nashriyot bo‘yicha bosh mutaxassis
ne’matmukimov@gmail.com


Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston mehnat bozorining 2020–2026-yillardagi rivojlanish tendensiyalari rasmiy statistika va Markaziy bank ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Ishsizlik darajasi 10,5 foizdan 4,8 foizgacha pasaygani, iqtisodiy o‘sishning bandlik bo‘yicha elastikligi 0,61 ni tashkil etgani hamda real ish haqi va mehnat unumdorligi o‘sishi o‘rtasida 6,4 foiz band tafovut shakllanganligi aniqlandi. Tashqi mehnat migratsiyasi yo‘nalishlari o‘zgarishining ichki mehnat bozoriga ta’siri baholangan. 2027–2030-yillar uchun uch ssenariyli prognoz ishlab chiqilib, bandlik siyosatini bandlik miqdoridan unumdorlik va bandlik sifatiga yo‘naltirish bo‘yicha takliflar berilgan.
Kalit so‘zlar: mehnat bozori, ishsizlik, mehnat unumdorligi, norasmiy bandlik, mehnat migratsiyasi, pul o‘tkazmalari, bandlik elastikligi, ssenariyli prognoz.
Abstract: The article analyses trends in Uzbekistan’s labour market in 2020–2026 using official statistics and Central Bank data. Unemployment fell from 10.5% to 4.8%, the employment elasticity of growth reached 0.61, and a 6.4 percentage-point gap opened between real wage growth and labour productivity growth. The impact of shifting external labour migration on the domestic labour market is assessed. A three-scenario forecast for 2027–2030 is developed, and measures are proposed to reorient employment policy from job quantity towards productivity and job quality.
Keywords: labour market, unemployment, labour productivity, informal employment, labour migration, remittances, employment elasticity, scenario forecast.
Абстрактный: В стате на основе официалной статистики и данных Централного банка анализируются тенденсии развития рынка труда Узбекистана в 2020–2026 годах. Установлено, что уровен безработисы снизился с 10,5% до 4,8%, эластичност занятости по экономическому росту составила 0,61, а между ростом реалной заработной платы и производителности труда сформировался разрыв в 6,4 п.п. Осенено влияние изменения направлений внешней трудовой мигратсии на внутренний рынок труда. Разработан прогноз на 2027–2030 годы по трём сценарийам и предложены меры по переориентатсии политики занятости с количества рабочих мест на производителност и качество занятости.
Ключевые слова: рынок труда, безработитса, производителност труда, неформалная занятост, трудовая миграция, денежныэ переводы, эластичност занятости, ссенарный прогноз.

Kirish (Введение/Introduction).

So‘nggi besh yilda O‘zbekiston mehnat bozorida keskin burilish yuz berdi. 2020 yilda pandemiya ta’sirida 10,5 foizga yetgan ishsizlik darajasi 2025 yil yakunida 4,8 foizga tushdi va 2013 yildan beri eng past ko‘rsatkichga yetdi (1-rasm) [1; 2]. 2025 yilning birinchi yarmida rasmiy bandlar soni 19 foizga ko‘payib, 8 mln kishiga yetdi, norasmiy bandlik esa 13,6 foizga qisqardi [3].

Biroq miqdoriy yutuqlar ortida yangi tarkibiy muammolar shakllanmoqda. Birinchidan, mehnat unumdorligi o‘sishi 2018–2025-yillardagi o‘rtacha 5 foizdan so‘nggi yilda taxminan 3 foizga sekinlashdi, real ish haqi esa 9 foizdan yuqori sur’atda o‘smoqda [1]. Ikkinchidan, Rossiya Federatsiyasida migratsiya siyosatining qat’iylashuvi natijasida an’anaviy mehnat migratsiyasi oqimi qisqarmoqda va bu ichki bozorga qo‘shimcha ishchi kuchi taklifini olib kelmoqda [6; 7]. Uchinchidan, Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zolik va iqtisodiyotni raqamlashtirish ish o‘rinlari tarkibini o‘zgartirmoqda: 2026-yilgi Davlat dasturida JST talablariga mos 20 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilish vazifasi belgilangan [8; 9].

Davlat dasturlarida 2026-yilda 1 mln kishini doimiy ishga joylashtirish va 1 mln norasmiy ishlovchini rasmiy sektorga o‘tkazish vazifasi qo‘yilgan [10]. Shu sharoitda mehnat bozorining tarkibiy o‘zgarishlarini baholash va o‘rta muddatli istiqbolni asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.



1-rasm. O‘zbekistonda ishsizlik darajasi dinamikasi, 2020–2027-yillar, %1

Tadqiqot maqsadi — O‘zbekiston mehnat bozorining 2020–2026-yillardagi tarkibiy o‘zgarishlarini baholash va 2027–2030-yillar uchun ssenariyli prognoz asosida bandlik siyosatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1.ishsizlik va bandlik dinamikasini demografik va tarmoq kesimida tahlil qilish;

2.iqtisodiy o‘sishning bandlik elastikligi hamda ish haqi va unumdorlik nisbatini baholash;

3.tashqi mehnat migratsiyasi o‘zgarishlarining ichki mehnat bozoriga ta’sirini aniqlash;

4.2027–2030-yillar uchun uch ssenariyli prognoz ishlab chiqish va amaliy takliflar berish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Tranzit iqtisodiyotlarda mehnat bozori tarkibiy o‘zgarishlarini tushuntirishda U.A.Lyuisning dual iqtisodiyot modeli muhim nazariy tayanch bo‘lib qolmoqda: ortiqcha ishchi kuchining past unumli agrar sektordan yuqori unumli zamonaviy sektorga ko‘chishi iqtisodiy o‘sishning asosiy manbai hisoblanadi [11]. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligidagi bandlik ulushining kamayishi va xizmatlar sohasida band bo‘lganlar sonining ortishi ushbu jarayon davom etayotganidan dalolat beradi [1].

J.Xarris va M.Todaro modeliga ko‘ra, migratsiya qarori joriy ish haqi emas, balki kutilayotgan daromadlar farqi asosida qabul qilinadi [12]. Bu yondashuv Rossiyada patent narxi oshishi va rubl kursining zaiflashishi natijasida kutilayotgan daromad kamaygani holda migratsiya oqimining qisqarishini izohlaydi.

Iqtisodiy o‘sish va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik A.Ouken qonuni doirasida keng o‘rganilgan [13]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu bog‘liqlik kuchsizroq, chunki norasmiy sektor va tashqi migratsiya ishsizlikni “yumshatuvchi” mexanizm vazifasini bajaradi. Shu sababli ishsizlikning rasmiy darajasi bilan bir qatorda bandlik elastikligi va bandlik sifati ko‘rsatkichlarini birgalikda tahlil qilish zarur.

Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlarida norasmiy bandlik rivojlanayotgan mamlakatlarda bandlikning katta qismini tashkil etishi va past unumdorlik hamda ijtimoiy himoyaning yetishmasligi bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan [14]. Texnologik o‘zgarishlar bo‘yicha D.Adjemog‘lu va P.Restrepo avtomatlashtirish ayrim vazifalarni siqib chiqarish bilan birga yangi vazifalar ham yaratishini asoslaydi [15], K.Frey va M.Osborn esa kasblarning avtomatlashtirish xavfi bo‘yicha baholarini taklif qilgan [16].

Mahalliy tadqiqotlarda mehnat iqtisodiyoti va aholi bandligining nazariy-amaliy asoslari Q.X.Abduraxmonov tomonidan tizimli yoritilgan [17]. Ayollarning iqtisodiy faolligi va ishsizligi N.Sh.Mansurova [18], hududiy darajada iqtisodiy faol bandlikni rivojlantirish muammolari esa M.M.Mirolimov [19] ishlarida o‘rganilgan. Biroq mavjud ishlarda ishsizlik, bandlik va migratsiya odatda alohida-alohida tahlil qilinadi. Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi — migratsiya oqimlari o‘zgarishi, unumdorlik va ish haqi tafovuti hamda bandlik elastikligini yagona tahliliy ramkada birlashtirib, o‘rta muddatli ssenariyli prognoz ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqotning axborot bazasini Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Milliy statistika qo‘mitasi, Markaziy bankning “Mehnat bozori sharhi” (2026-yil I chorak), Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki ma’lumotlari tashkil etadi [1; 2; 4; 5; 20]. Tahlil davri — 2020–2026-yillar.

Tadqiqotda dinamik va tarkibiy tahlil, iqtisodiy o‘sishni omillarga ajratish (dekompozitsiya), bandlik elastikligini hisoblash va ssenariyli prognozlash usullari qo‘llanildi. YAIM o‘sishi mehnat unumdorligi va bandlik o‘sishi yig‘indisi sifatida taqribiy ifodalanadi:

$$\Delta Y \approx \Delta(Y/L) + \Delta L, \quad (1)$$

bu yerda ΔY — YAIM real o‘sishi, $\Delta(Y/L)$ — mehnat unumdorligi o‘sishi, ΔL — bandlik o‘sishi (foizda). Iqtisodiy o‘sishning bandlik elastikligi quyidagicha hisoblanadi:

$$E = \Delta L / \Delta Y. \quad (2)$$

Ish haqi va unumdorlik tafovuti real ish haqi o‘sishi (ΔW) va mehnat unumdorligi o‘sishi farqi sifatida aniqlandi:

$$G = \Delta W - \Delta(Y/L). \quad (3)$$

Ssenariyli prognoz XVJning 2026–2027-yillarga rasmiy prognoziga [4] tayangan holda, 2028–2030-yillar uchun migratsiya, unumdorlik va YAIM o‘sishi bo‘yicha muqobil farazlar asosida muallif tomonidan tuzildi. Turli manbalarda ishsizlikni hisoblash uslubiyati farq qilishini (milliy hisob va XMT modeli) inobatga olib, yoshlar ishsizligi bo‘yicha ma’lumotlar faqat tendensiyani baholash uchun qo‘llanildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and rezults).

Ishsizlik dinamikasi

2020–2025-yillarda umumiy ishsizlik darajasi 5,7 foiz bandga pasayib, 4,8 foizni tashkil etdi (1-rasmga qarang). Ammo 15–24 yoshlilar ishsizligi ushbu davrda 11 foiz atrofida saqlanib, 2025-yilda 11,4 foizga oshdi [5]. Demak, umumiy pasayish yoshlar mehnat bozoriga yetarli darajada yoyilmagan. Jahon banki bahosiga ko‘ra, yosh ayollar orasida ishsizlik 15,5 foiz (yigitlarda 10 foiz), na o‘qimaydigan, na ishlamaydigan yosh ayollar ulushi 42 foizni tashkil etadi [20].

Bandlik tarkibi

Bandlik o‘sishining asosiy manbai — xususiy sektor: 2025-yilda unda bandlik 5,2 foizga o‘sib, umumiy o‘sishga 4,2 foiz band hissa qo‘shdi; davlat sektorining hissasi atigi 0,5 foiz bandni tashkil etdi [1]. Rasmiylashtirish jarayoni ham tezlashdi (1-jadval).

1-jadval.

Band aholi tarkibi, 2025-yil I yarim yilligi[2]

Bandlik turi	Soni, mln kishi	Ulushi, %	Yillik o‘zgarish, %
Rasmiy sektor	8,0	55	+19,0
Norasmiy sektor	4,8	33	−13,6
Xorijda mehnat qilayotganlar	1,8	12	—

O‘sish dekompozitsiyasi va ish haqi–unumdorlik tafovuti

2025-yilda YAIMning 7,7 foizlik o‘sishidan 4,7 foiz bandi bandlik o‘sishi, atigi 2,9 foiz bandi esa unumdorlik hissasiga to‘g‘ri keldi [1]. (2) formula bo‘yicha bandlik elastikligi E = 4,7 / 7,7 = 0,61 ni tashkil etadi, ya’ni o‘sishning asosiy qismi intensiv emas, ekstensiv omil hisobiga ta’minlanmoqda. Mehnat unumdorligi o‘sishi 2018–2025-yillardagi o‘rtacha 5 foizdan 2,9 foizgacha sekinlashdi (2-jadval).

1 Muallif ishlanmasi

[2] Muallif ishlanmasi

2-jadval.

Iqtisodiy o‘sish, bandlik, unumdorlik va ish haqi ko‘rsatkichlari, 2025-yil[3]

Ko‘rsatkich	Qiymati
YAIM real o‘sishi (ΔY), %	7,7
Bandlik o‘sishi (ΔL), %	4,7
Mehnat unumdorligi o‘sishi (Δ(Y/L)), %	2,9
Real ish haqi o‘sishi (ΔW), %	9,3
Bandlik elastikligi (E)	0,61
Ish haqi–unumdorlik tafovuti (G), foiz band	6,4

Real ish haqining unumdorlikka nisbatan qariyb uch baravar tez o‘sishi inflyatsion bosimni saqlab turibdi. 2026-yil I choragida faol rezyumelar soni 31,5 foizga, vakansiyalar esa mart oyida 9,8 foizga oshgani [1] ishchi kuchi taklifi talabdan tezroq o‘sayotganini va kelgusida ish haqi o‘sishi mo‘tadillashishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Tashqi mehnat migratsiyasi

2026-yil I choragida Rossiyada patent asosida ishlagan O‘zbekiston fuqarolari 1,34 mln nafarni tashkil etdi [1]; yilning birinchi yarmida Rossiyaga mehnat migratsiyasi 13,2 foizga qisqardi [6]. Shu bilan birga pul o‘tkazmalari 13 foizga oshib, 3,8 mlrd AQSH dollariga yetdi, ularning geografik tarkibi esa diversifikatsiyalashdi (3-jadval).

3-jadval.

Pul o‘tkazmalarining mamlakatlar bo‘yicha tarkibi, 2026-yil I chorak[4]

Mamlakat	Ulushi, %	O‘zgarish, foiz band
Rossiya	72,4	−5,2
Boshqa davlatlar	16,2	+2,6
Qozog‘iston	4,1	+1,0
Janubiy Koreya	4,1	+0,6
Yevropa davlatlari	3,3	+1,0

Rossiya yo‘nalishidagi qisqarish Xarris–Todaro modeliga mos keladi: patent narxi oshishi va rublning zaiflashishi migrantning kutilayotgan daromadini kamaytirdi [1; 12]. 2026-yil 25-avgustdan 5-sentyabrgacha 96 415 kishi Rossiyadan qaytdi [7]. Turkiya, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi va AQSHdagi o‘zbekistonliklar soni esa 2025-yil oxirida qariyb 320 ming kishini tashkil etdi [6] — bu Rossiyadagi patent asosidagi bandlikning taxminan to‘rtdan bir qismiga teng.

Olingan natijalar O‘zbekiston mehnat bozori “miqdoriy o‘sish” bosqichidan “sifat” bosqichiga o‘tish nuqtasida turganini ko‘rsatadi. Ishsizlikning keskin pasayishi ijobiy natija bo‘lsa-da, u asosan bandlik kengayishi hisobiga erishilgan. Bandlik elastikligining 0,61 darajada bo‘lishi va unumdorlik o‘sishining sekinlashishi Lyuis modelida tavsiflangan resurslarni qayta taqsimlash samarasi kamayayotganidan dalolat berishi mumkin [11].

Ikkinchi muhim jihat — migratsiya va ichki bozorning o‘zaro bog‘liqligi. Tashqi migratsiya uzoq yillar davomida ortiqcha ishchi kuchini “eksport qilish” va pul o‘tkazmalari orqali ichki iste’molni qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajarib kelgan. Markaziy bank xulosasiga ko‘ra, Rossiya yo‘nalishida migratsiyaning kamayishi mamlakat ichida ishchi kuchi taklifini ko‘paytirib, ayrim sohalarda ish haqi dinamikasini susaytirishi va oilalar daromadini pasaytirishi mumkin [6]. Shu sababli ichki bandlik siyosati migratsiya siyosati bilan yagona tizimda ko‘rib chiqilishi lozim.

Uchinchidan, JSTga a’zolik [9; 21] va raqamlashtirish [15; 16] past malakali va takrorlanuvchi vazifalarga talabni kamaytirib, malakali kadrlarga talabni oshiradi. Yoshlar va ayollar ishsizligining yuqoriligicha qolayotgani [5; 20] bu guruhlar tarkibiy o‘zgarishlarga eng zaif ekanligini ko‘rsatadi.


2027–2030-yillar uchun ssenariylar

Tahlil natijalari asosida mehnat bozori rivojlanishining uch ssenariysi ishlab chiqildi (4-jadval, 2-rasm).

4-jadval.

Mehnat bozori rivojlanishining ssenariyli prognozi[5]

Ssenariy	Asosiy shartlar	YAIM o‘sishi, yillik, %	Ishsizlik,2030-y., %	Ehtimollik, %
Asosiy	JSTga a’zolik; migratsiya asta-sekin diversifikatsiyalanadi; unumdorlik o‘sishi 3–4%	6–6,5	3,5–4,0	~55
Ijobiy	Investitsiya va eksport tezlashadi; unumdorlik o‘sishi 5% ga qaytadi; ayollar bandligi oshadi	7 dan yuqori	3,0–3,5	~20
Salbiy	Rossiyadan 300–500 ming kishi qo‘shimcha qaytadi; rubl zaiflashadi; o‘sish sekinlashadi	4–5	5,5–6,5	~25



2-rasm. Ishsizlik darajasining 2030-yilgacha ssenariyli prognozi, %6

Asosiy ssenariy XVJning 2027-yil uchun 3,8 foiz ishsizlik va 6,5 foiz YAIM o‘sishi prognoziga mos keladi [4]. Muallif hisobiga ko‘ra, salbiy ssenariyda qaytayotgan migrantlarning ichki bozorga qo‘shilishi iqtisodiy faol aholini 2–3 foizga ko‘paytirib, ishsizlikni 1,5–2,5 foiz bandga oshirishi mumkin. Barcha ssenariylarda yoshlar va ayollar ishsizligi umumiy darajadan yuqori qoladi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga asos beradi:

1.2020–2025-yillarda ishsizlik darajasi 10,5 foizdan 4,8 foizga tushdi, ammo 15–24 yoshlilar ishsizligi 11 foiz atrofida saqlanib qoldi.

2.Iqtisodiy o‘sishning bandlik elastikligi 0,61 ni tashkil etib, o‘sish asosan ekstensiv omil hisobiga ta’minlanmoqda; mehnat unumdorligi o‘sishi 2,9 foizgacha sekinlashdi.

3.Real ish haqi va unumdorlik o‘rtasida 6,4 foiz band tafovut shakllandi, bu holat uzoq muddatda barqaror emas.

4.Tashqi migratsiya yo‘nalishlari diversifikatsiyalanmoqda, ammo Rossiyaning pul o‘tkazmalardagi ulushi hali ham 72 foizdan yuqori; undan qaytish oqimi ichki bozor uchun asosiy xavf manbai hisoblanadi.

5.Asosiy ssenariyda 2030-yilgacha ishsizlik 3,5–4 foiz oralig‘ida barqarorlashadi, salbiy ssenariyda esa 5,5–6,5 foizgacha ko‘tarilishi mumkin.

[3] Muallif ishlanmasi
[4] Muallif ishlanmasi
[5] Muallif ishlanmasi

6 Muallif ishlanmasi

Bandlik siyosatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1.**Bandlik siyosati maqsadini o‘zgartirish:** ishga joylashtirilganlar soni bilan bir qatorda bandlik sifati (daromad, mehnat shartnomasi, ijtimoiy himoya) ko‘rsatkichlarini davlat dasturlarining maqsadli indikatorlariga kiritish.

2.**Qaytayotgan migrantlar uchun qayta integratsiya mexanizmi:** malakani tan olish, qisqa muddatli qayta tayyorlash va kichik biznes uchun imtiyozli kreditlash.

3.**Tashqi migratsiyani tashkiliy diversifikatsiya qilish:** Janubiy Koreya, Yevropa va Turkiya yo‘nalishlari uchun til va kasbiy tayyorgarlik, davlatlararo tashkiliy kelishuvlar.

4.**Yoshlar va ayollar bandligi:** maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish, masofaviy va moslashuvchan ish shakllarini rag‘batlantirish, yoshlarning birinchi ish o‘rnini subsidiyalash.

5.**Raqamli monitoring:** Mehnat resurslari balansi axborot tizimi (BTR.IPLMR.UZ) asosida hududlar kesimida migratsiya oqimlari va bandlik ssenariylarini choraklik modellashtirish.

6.**Sun’iy intellekt ta’sirini baholash:** milliy kasblar klassifikatori asosida kasblarning avtomatlashtirish xavfi bo‘yicha milliy baholashni o‘tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы /References)

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Mehnat bozori sharhi, 2026-yil I chorak. — Toshkent, 2026. — URL: https://cbu.uz/upload/iblock/23b/o7l65607a1nztm5pcsv7e5enc1s7nku3/Me_nat_bozori_shar_i_2026_yil_I_chorak.pdf
2. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Ishsizlik darajasi 5 foizdan pasaydi // UzDaily, 12.11.2025. — URL: https://www.uzdaily.uz/en/ministry-of-employment-unemployment-rate-in-uzbekistan-falls-below-5/
3. 1,8 million nafar O‘zbekiston fuqarosi xorijda ishlamoqda // Anhor.uz, 2025. — URL: https://anhor.uz/uz/news/ishsizlik-darajasi-kr/
4. Xalqaro valyuta jamg‘armasi. World Economic Outlook, October 2026: O‘zbekiston bo‘yicha prognoz // Anhor.uz. — URL: https://anhor.uz/uz/iqtisodiyot/xvj-ozbekistonning-iqtisodiy-osish-prognozini-yaxshiladi
5. World Bank. World Development Indicators: Youth Unemployment Rate for Uzbekistan (SLUEM1524ZSUZB) // FRED. — URL: https://fred.stlouisfed.org/data/SLUEM1524ZSUZB
6. Labor migration from Uzbekistan to Russia falls 13.2% in H1 2026 // Kun.uz, 02.10.2026. — URL: https://kun.uz/en/news/2026/10/02/labor-migration-from-uzbekistan-to-russia-falls-132-in-h1-2026
7. Nearly 100,000 Uzbeks Return From Russia as Labor Migration Slows // The Times of Central Asia, 14.09.2026. — URL: https://timesca.com/uzbek-labor-migration-russia-returns/
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturi (407–408-bandlar) // Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, 19.03.2026. — URL: https://gov.uz/en/investmiit/news/view/148792
9. Uzbekistan’s accession to the WTO: another important meeting // gov.uz, 25.09.2026. — URL: https://gov.uz/en/sanepid/news/view/224257
10. O‘zbekiston aholisining 55,7 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilarni tashkil etadi // Anhor.uz, 2026. — URL: https://anhor.uz/uz/news/zbekiston-a-olisining/
11. Lewis W.A. Economic Development with Unlimited Supplies of Labour // The Manchester School. — 1954. — Vol. 22, No. 2. — P. 139–191.
12. Harris J.R., Todaro M.P. Migration, Unemployment and Development: A Two-Sector Analysis // American Economic Review. — 1970. — Vol. 60, No. 1. — P. 126–142.
13. Okun A.M. Potential GNP: Its Measurement and Significance // Proceedings of the Business and Economic Statistics Section. — American Statistical Association, 1962. — P. 98–104.
14. International Labour Organization. Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture. 3rd ed. — Geneva: ILO, 2018.
15. Acemoglu D., Restrepo P. Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor // Journal of Economic Perspectives. — 2019. — Vol. 33, No. 2. — P. 3–30.
16. Frey C.B., Osborne M.A. The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerisation? // Technological Forecasting and Social Change. — 2017. — Vol. 114. — P. 254–280.
17. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. — T.: Iqtisodiyot, 2019.
18. Mansurova N.Sh. Ayollar o‘rtasidagi iqtisodiy faollik, bandlik va ishsizlik // Iqtisodiyot va ta’lim. — 2022. — № 5. — B. 427–433.
19. Mirolimov M.M. Toshkent viloyatida iqtisodiy faol bandlikni rivojlantirishdagi muammo va yechimlar // Iqtisodiyot va ta’lim. — 2023. — № 2. — B. 151–156.
20. Jahon banki. O‘zbekiston gender baholashi // Anhor.uz. — URL: https://anhor.uz/uz/news/zbekistonda-ishlamajdigan-va-imajdigan-ajollar-soni-42-ni-tashkil-ildi/
21. Economic growth and foreign markets – why Uzbekistan is accelerating WTO accession // Kun.uz, 24.03.2026. — URL: https://kun.uz/en/news/2026/03/24/economic-growth-and-foreign-markets-why-uzbekistan-is-accelerating-wto-accession